

# Tarixiy ma'lumotlar

## Qoraqalpog`iston Respublikasi

Muqaddas Vatanimiz – O`zbekiston Respublikasi o`zining 27 yillik mustaqil rivojlanish yillarida asrlarga teng yo`lni bosib o`tdi. Tarixan qisqa bu davrda shahar va qishloqlarimiz, butun yurtimiz qiyofasi, jamiyatimizdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar butunlay o`zgardi. Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida barqaror o`shish sur`atlari kuzatilmoqda. Eng muhimi, xalqimiz qalbida o`z yurtiga egalik hissi, shu ulug` Vatanning bugungi va ertangi kuni uchun mas`uliyat va daxldorlik tuyg`usi ortib, uning ongu tafakkuri va dunyoqarashi yuksalib bormoqda.

Mustaqillik yillari butun mamlakatimizga, har bir hudud va mintaqaga bunyodkorlik va yangilanishlar boshlab kelganining tasdig`ini O`zbekistonimizning shimoliy qismida joylashgan Qoraqalpog`iston Respublikasi misolida ham yaqqol ko`rish mumkin.

Ma`lumki, saxovatli va betakror qoraqalpoq diyori mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojida alohida o`rin tutadi. Bu haqda so`z yuritganda, Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug`anievich Karimovning “Qoraqalpoq xalqi doimo yurtimizning tayanch tog`laridan hisoblangan” degan so`zlarini esga olish o`rinlidir.

Shuning uchun ham mustaqillik yillarida boshqa mintaqalarimiz qatori Qoraqalpog`istonning rivojlanishiga ham ulkan e`tibor berilmoqda. Aynan ana shunday e`tibor tufayli bugungi kunda respublika poytaxti – Nukus shahridan boshlab, tumanlar markazlari, shahar va qishloqlar, hatto chekka ovullargacha har tomonlama o`zgarib, rivojlanib bormoqda. Bunda, ayniqsa, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoev ning bevosita tashabbusi bilan ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilayotgan Qoraqalpog`iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aytish kerakki, bu dasturlar respublikani asrlar davomidagi oddiy agrar o`lkadan zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalar, transport-kommunikatsiya tarmoqlari, yuksak malakali kadrlarga ega bo`lgan qudratli mintaqaga aylantirishni nazarda tutadi.

Dasturlarning bosqichma-bosqich hayotga tadbiiq etilishi natijasida qoraqalpoq zamini bugungi kunda tanib bo`lmas darajada o`zgarib, yildan-yilga chiroy ochib, barqaror sur`atlarda rivojlanib borayotgan diyorga aylandi.

Mustaqillik yillarida bu zaminda amalga oshirilgan ulkan iqtisodiy-ijtimoiy o`zgarishlar, qurilish va obodonchilik ishlarini sanab adog`iga etib bo`lmaydi. O`rta Osiyoda yagona

boʻlgan, sahro bagʻridagi moʻjiza deb nom olgan Qoʻngʻirot soda zavodi, Ustyurt gaz-ximiya kompleksi, Nukus polimer, Samsung-Nukus, Nukus elektroapparat, «Lanextrakt» qospa kərxanası, «Nukus Med Tex» MChJ, «Tərtkyl shiyshe ıdısları» MChJ, Xoʻjayli shisha zavodi, “Markaziy Osiyo bezak toshlari” qoʻshma korxonasi, Qoʻngʻirotidagi karbid, Nukusdagi marmar va kabel zavodlari, Oʻrga gaz koni, “Elteks” va “Kateks” majmualari kabi zamonaviy ishlab chiqarish obʻektlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nukus filiali, Olimpiya zaxiralari kolleji binolari, 345 kilometrlik Navoiy – Nukus temir yoʻli, Nukus bilan Xoʻjaylini bogʻlaydigan ulkan koʻprik, Qoʻngʻirot avtomobil yoʻli, oʻnlab umumtaʼlim maktablari va maktabgacha taʼlim muassasalari, litsey va kollejlari, bolalar sporti, bolalar musiqa va sanʼat maktablari singari koʻplab inshootlar – bularning barchasi istiqbol mevasidir.

Milliy avtomagistral qurilishida roʻy bergan ulkan voqealardan biri – bu shu yoʻlning Nukus shahriga kiraverishida yangi koʻprik va chorraha yoʻlning qurilishidir.

Shuni ham alohida taʼkidlab oʻtishimiz kerak, Muhtaram Birinshchi Prezidentimizning tashabbusi bilan tamal toshi qoʻyilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasining qurilishi bugun dunyo xalqlari eʼtiborini jalb etmoqda.

Eng muhimi, qoraqalpoq xalqi asrlar davomida orzu qilib, intilib kelgan ezgu maqsadiga etdi – ozod va erkin, tinch-osuda hayotga erishdi, oʻz tarixi, madaniy merosi, milliy anʼana va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish, oʻzligini anglash imkoniga ega boʻldi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Oʻzbekistonning shimoliy-gʻarbiy qismida, Amudaryoning quyi qismi, Orol dengizining janubiy sohilida joylashgan. Respublika janubi-gʻarb tomondan Qoraqum sahrosiga tutashgan. Uning shimoliy-gʻarbida Ustyurt tekisligi, shimoliy-sharqiy tomonida esa Qizilqum sahrosi yastanib yotibdi. Orol dengizining janubiy hududi qoraqalpoq zaminida joylashgan. Qoraqalpogʻistonning umumiy er maydoni 166,6 ming kvadrat kilometrdan iborat boʻlib, u hududining kattaligi jihatdan Oʻzbekiston Respublikasi viloyatlari oʻrtasida birinchi oʻrinda turadi. Respublika aholisi 2018 yil 1 aprel holatiga 1 million 800 ming kishidan ziyoddir.

Respublikaning maʼmuriy-hududiy tuzilmasi 15 ta tuman va 1 ta shahardan iborat. Bular Amudaryo, Beruniy, Qoraoʻzak, Kegeyli, Qoʻngʻirot, Qonlikoʻl, Moʻynoq, Nukus, Taxtakoʻpir, Toʻrtkoʻl, Xoʻjayli, Taxiyotosh, Chimboy, Shoʻmanoy, Ellikqalʼa tumanlari va Nukus shahridir.

Qoraqalpogʻiston Oʻzbekiston Respublikasi tarkibidagi parlament boshqaruv shakliga ega boʻlgan suveren respublikadir. Qoraqalpogʻiston oʻz Konstitutsiyasi, bayrogʻi, gerbi va gimniga ega. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Respublikada umumiy rahbarlik Joʻqorgʻi Kenges Raisi – Qoraqalpogʻiston Respublikasi parlamenti

Raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Respublikaning oliy ijroiya hokimiyati Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi tomonidan tasdiqlangan Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Respublika Vazirlar Kengashi tarkibiga Kengashining Raisi, Raisning o`rinbosarlari, vazirlar, davlat qo`mitalari raislari, yirik kontsern va birlashmalar rahbarlari kiradi. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi o`z vazifasiga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi. O`zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrida, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog`iston Respublikasining doimiy vakolatxonasi faoliyat ko`rsatadi.